

# **BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA IJODIY FAOLIYATNING AHAMIYATI.**

**Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası**

**o'qituvchisi Qilichova Marhabo Xudoyqulovna**

**Musurmonova Ruxshona Rasul qizi**

**A.Qodiriy nomli JDPU maktabgacha**

**talim yo'nalishi 2-kurs**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается важность приучения дошкольников к творческой деятельности.

**Annotation:** This article highlights the importance of teaching preschool children to creative activities.

**Kalit so'zlari:** ma'naviy ijodiy usullar, assotsiativlik, dialiktik fikrlash, MTT, ijodiy faollik, tasviriy faoliyat, ijod, ijodkor, yaratilish, ijodkorlik.

**Key words:** spiritual and creative methods, associativity, dialectical thinking, MTT, creative activity, visual activity, creativity, creator, creativity, creativity.

**Ключевые слова:** духовно-творческие методы, ассоциативность, диалектическое мышление, МТТ, творческая деятельность, изобразительная деятельность, творчество, творец, творчество, творчество.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amlalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim

tizimini yanada tokomillashtirish bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan keng foydalanishni ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari tog'risidagi PQ-3955-son qarori tastiqlandi, shu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ta'lim tog'risidagi qonunning 11-moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlanadi. Maktabgacha ta'lim shaxsni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalab maktab tamlimiga tayyorlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada bolalar bog'chasida olib boriladi.

2016-yil takomillashtirilgan davlat talablari qabul qilindi. Davlat talablari tug'ulgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar beshta asosiy rivojlanish sohasiga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan va qutulayotgan rivojlanish ko'satgichlaridan iborat. Bunda quyidagi yo'nalishlar asos qilib olinadi.

--jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi--Ijtimoiy hissiy rivojlanish

--nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

--bilish jarayonining rivojlanishi

--ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodkorligi, avvalo, uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan nutaql fikrlashida namoyon bo'lishi lozim. Har qanday ijod borliqni rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir. O'qitishdagi individual yondashish ham ta'lim jarayonining muhim talabidir. O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida materialni o'tish, mustahkamlash va takrorlashlardan ham amalga oshirishi zarur. Bu esa tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik mahoratlari va qobiliyatlari o'sishida yana bir

eshikni ochadi. Ma'naviy ijodiy usullar shu tariqa maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda eng asosiy ro'l o'ynaydi va ushbu usul 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarga bilishga qiziqishni uyg'otib bilish.
2. Bolalarning egallagan bilim va tajribasiga asoslangan holda masala qo'yish hamda ularga tayanib masalani tahlil qilish.
3. Bolalar o'rganish kerak bo'lgan muammo ustuda mustaqil fikr yuritib xulosa chiqarishga erishish.

Maktabgach yoshdagi ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy pedagogik vazifasi assotsiyativligini, dialektizmni va tizimli fikrlashni shakllantirishdir. Aynan shu fazilatlarining rivojlanishi fikrlashni moslashuvchan o'ziga xos va samarali qiladi. Assotsiyativlik deganda obyektlar va hodisalardagi bir qarashda taqqoslanmaydigan aloqalar va o'xshashliklarni ko'rish qobiliyati tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda assotsiyativlikni rivojlantirish tufayli fikrlashi moslashuvchan va o'ziga xos bo'ladi. Bundan tashqari ko'plab assotsiyativ havolalar kerakli malumotlarni xotiradan tezda olish imkonini beradi. Assotsiyativlikni maktabgacha yoshdagi bolalar ro'l o'ynashda osonlikcha egallaydilar. Ushbu sifatni rivojlantirishga yordam beradigan maxsus o'yinlar ham mavjud.

Ko'pincha kashfiyotlar bir-biriga mos kelmaydigan ko'rinishga bog'liq bo'lgan holda tug'uladi. Masalan uzoq vaqt havodan og'irroq samolyotlarda uchish imkonsizdek tuyuladi.

Dialektik fikrlash-qarama qarshiliklarni shakllantirishga va uni hal qilish yo'lini topishga yordam beradi. Dialektizm bu ularni rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan har qanday tizimlarda qarama qarshiliklarni ko'rish qobiliyati bu qarama qarshiliklarni bartaraf etish muammolarini hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Dialektika deganda istedadli fikrlarning zaruriiy sifati desak ham mubolog'a bo'lmaydi. Bir qancha psixologlar bir ator tatqiqotlar o'tkazadilar va dialektik fikrlash mexanizimini xalq va ilmiy ijodda ishlashini aniqladilar. Xususan Vigodshi asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki,

taniqli rus psixologi o'z tadqiqotlarida ushbu mexanizmdan doimo foydalangan.

Maktabga bolani tarbiyalashda, tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy qurish materiallarini bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslarini va mehnat darslarini muvofaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xoxish, yangiliklarini bilishga intilish, maqsadi sari intilish, tartibli holda shug'ullanish vas shu kabilar. Rasm chizish loydan buyumlar yasash va applikasiya bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak atrofni obrazli aks uslubi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini muvoffiqatliyatli rivojlantirish uchun birinchi muhim sharti-bu chaqaloqni erta jismoniy rivojlanishi: erta suzish, gimnastika, erta sudralib yurish, keyin erta o'qish, hisoblash, turli xil vositalar va materiallarga erta ta'sir qilish. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ikkinchi muhim sharti-bu bolalar rivojlanshidan oldinda oldinda bo'lgan muhitni yaratishdir. Ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishning uchinchi o'rta muhim sharti ijodiy jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu esa maksimal kuch sarflashni talab qiladi. Ayni paytda dunyoni bilish jarayoni juda intinsiv, ammo chaqaloq kattalar tarjibasidan foydalana olmaydi, chunki bundan kichik bolaga hali tushuntirish uchun kuch narsa yo'q. Shu sababli ushbu davrda chaqaloq har doimgidan ham ko'proq ijodkorlik bilan shug'ullanishga majbur bo'lib, u uchun juda ko'p yangi muommolarni o'zi va oldindan tayyorgarliksiz hal qilishga majbur qiladi. Ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqatliyatli rivojlantirishning to'rtinchi sharti-bolani faolyatni tanlashda va hohazalarda jatta erkinlik berishdir. Ijodiy qobiliyatlarni muvoffaqiyatli rivojlantirishning beshinchi sharti-erkinlikni ruxsat beruvchiga aylantirish emas aksincha yordamga ishora qilishdir. Ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning oltinchisharti bu oilada va bolalar jamoasida iliq, do'stona muhit.

Kattalar bolaning ijodiy izlanish va o'z kashfiyotlaridan qaytishi uchun

xavfsiz psixologik bazani yaratish kerak. Sharhlar va qoralashni kundalik hayotdan chiqarib tashlash kerak. Ijod-ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyat yoki faoliyat natijasidir.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash-kasbiy ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish xususiyati hisoblanadi.

Yaratilish-bu insonning transformatsion faoliyati jarayonida yangi bir narsaning paydo bo'lishi. Ijodiy faoliyat belgilari bu o'ziga xoslik, o'ziga xoslik, o'ziga xoslikdir va uning natijasi ixtirolar, yangi bilimlar, qadriyatlar, san'at asarlari. Haqiqiy ijodiy qobiliyatlar hayot va hayotni o'z ichiga oladi, ya'ni yangi hissiy yoki aqliy tasvirlarni yaratish qobiliyati.

Ijodiy jarayon to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Tayyorgarlik
2. Kamolotga erishish
3. Marifat
4. Tekshirish

Ijodkorlik-bu insonning sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishi yoki subyektiv ravishda yangisini yaratish natijasidir. Ijodiy qobiliyat-ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baxolashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati hisoblanadi. Ijod va uning o'ziga xosligi haqida bir qator olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida ko'rib chiqishgan. Jumladan, Boris Leonidovich Pasternak o'zining tadqiqotlari natijasida "Ijodning maqsadi-bu o'zini o'zi berish" degan g'oyani ilgari surgan uning aytishicha, ijodkor-bu o'zini beradigan, o'zini boshqalarga beradigan kishidir. O'zini ifoda etish zarurati har kimga xosdir.

Ijodiy faoliyat, bir qator tarkibiy qismlarga bo'linadi.

1. Maqsad
2. Maqsadga erishish vositasi
3. Natija

Shuni xulosa qilish mumkinki bolani jamiyatning ikkinchi bo'g'iniga o'tkazishda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham muhim rol o'ynaydi. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirishda tarbiyachilarning roli kattadir.

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga ularga aqliy tarbiya, estetik tarbiya, sensor tarbiya va shu kabi bir qancha xislatlari ham rivojlanadi. Shunday qilib, ijodkorlik orqali tarixiy rivojlanish va avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik amalga oshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. F. R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N. M. Kayumova, M. N. A'zamova "Maktabgacha pedagogika".
2. D. Q. Asqarova Bollarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. (Metodik qo'llanma) Namangan 2018-yil.
3. O. A. Maxmudova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi modoli bo'yicha o'quv uslubiy majmua Toshkent 2018.
4. Z. S. Teshabayeva Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish (O'quv qo'llanma) T. 2021.
5. X. A. Meliyev, G. I. Xasanova. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish (O'quv qo'llanma) T. Lesson-press nashriyoti 2022-y.